Ta'lim jarayonini tashkil etish texnologiyalarini takomillashtirishda steam texnologiyasidan foydalanish	601
Abdumajitova Sayohat Abduqosimovna	
Pedagogik ta'limni integratsiyalash turlari va didaktik tamoyillari	605
Berdiyev Bahodir Ravshanovich	
Raqamli o'quv vositalari yordamida bolalar uchun ingliz tilini o'rganish jarayonini samarali tashkil etishda xalq og'zaki ijodiy namunalaridan foydalanish.....	608
Boqijonova Nargiza Jumanazar qizi, Rajabboyeva Gulchexra Foziljon qizi	
Mehribonlik uylari bolalarida ijtimoiy xulq-atvorning rivojlanishi.....	611
Dilobar Saidova	
Yoshlar tarbiyasida pedagogik konsepsiyalarning roli va ahamiyati	614
Ergashev Oybek Qaxramon o'g'li	
Talabalarning intellektual qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan o'quv mashg'ulotlarini tashkil etishni takomillashtirish.....	617
Ernazarov Alisher Ergashevich, Chinqulova Gulmehra Bahronovna	
Migrant o'quvchilarda pedagogik tolerantlik kompetensiyasini rivojlantirish metodlari	621
Eshonjonov Bobir Zafarjonovich	
Oliy ta'limda muhandislik faoliyatini ta'minlash metodologiyasi.....	625
Eshonqulov Sherzod Ummatovich	
A Comparative Linguistic Analysis of English and Uzbek Proverbs and Aphoristic Expressions as Structural, Semantic, and Cultural Dimensions	628
Jumayev Sanjar Jurakulovich	
Innovatsion ta'lim texnologiyalari asosida talabalarning metodik tayyorgarligini shakllantirish	631
Komilov Umidjon Normurod o'g'li	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalar bilan loyiha-tadqiqot ishlarini tashkil etishning mazmuni	635
M. X. Tadiyeva	
Raqamli axborot muhitini shakllantirish bosqichida informatika fanining ahamiyatini belgilab beruvchi omillar	639
Mamajanov Raxmatilla Yakubjanovich, Nazarova Madina Abdullayevna, Xolbayeva Gulnora Bakirovna	
Pedagogik konfliktlar: turlari, sabablari va optimal yechimlari	644
Muhammadiyeva Setora Odil qizi	
Subyektga yo'naltirilgan ta'limning pedagogik-psixologik asoslari	647
Nigora Negmatova	
Mantiqiy masalalar orqali boshlang'ich sinf o'quvchilarining aqliy tafakkurini rivojlantirish	651
Pirimova Mohinur Furqat qizi	
Ona tili darslarida matn tuzilishini o'rgatishning metodik asoslari.....	654
Qurbonnazarova Ziyoda Abdukarim qizi	
O'quvchilarning matematika faniga qiziqishini oshirishda interfaol metodlar va ijodiy yondashuvlarning roli.....	657
Quvvatova Ozoda Gulbek qizi	



Boshlang'ich sinf o'quvchilarining kompetensiyalarini shakllantirish va rivojlantirishda o'qitishning tashkiliy-pedagogik shartlari	660
Rahmonova Zulayho Abdumalikovna, Buzrukov T. O.	
Professional sportda faol ayollar salomatligining monitoringi va ularni sog'lom turmush tarziga yo'naltirish strategiyalari	663
Raimov Xamid Soatovich	
O'quvchilarni jismoniy tarbiyalashda harakatli o'yinlardan foydalanish	666
Ravshanova Sabina Bahodir qizi	
Art-terapiyaning bola "men"ining rivojlanishidagi ahamiyati	669
Raxmatova Gulobod Tuyboy qizi	
Maktabgacha yosh davr – bolalar ijtimoiylashuvining muhim omili sifatida	672
Sanayeva Surayyo Bobonazarovna, Eshmirzayeva Mohichehra Ikrom qizi	
5E modeli asosida darsni loyihalash: nazariya va amaliyot uyg'unligi	676
Shodiyeva Matluba Jo'rayevna	
Maktabgacha ta'lim tashkiloti jamoasining psixologik xususiyatlari	681
Shukrullayev Ozod Arzuyevich	
Talabalarda pedagogik e'tiqodni shakllantirishning variativ modeli va uning asosiy komponentlari	684
Sodiqova Dinara Alisher qizi	
Matn bilan ishlash bosqichlari va ularning ingliz tilini o'rgatishdagi didaktik ahamiyati	687
Soliyev Umidjon Yulchivoyevich	
Narsalarni sanash, miqdorni belgilash uchun qo'llaniladigan matematik vositalar, matematikaning asosiy tushunchalari	691
To'rayeva Kamola Vosidjon qizi	
O'smirlar xulq-atvoriga ommaviy madaniyatning ta'siri	694
Umarova Navbahor Shokirovna, Babayeva Saida Juman qizi	
Nafas olish mashqlarini jismoniy imkoniyati cheklangan talabalarning adaptiv imkoniyatlariga ta'siri	698
Valiyeva N. Y.	
Syujetli-rolli o'yinlar orqali maktabgacha yoshdagi bolalarda kommunikativ ko'nikmalarni rivojlantirish	702
Xalilova Dilnoza Furqatovna	
Talabalar imtihon oldi qo'rquv va xavotirlarining psixologik omillari	705
Xolmatov Zafar Muxtorjon o'g'li	
Umumiy va noorganik kimyo fanini simmetrik yo'nalishdagi tuzilmaviyligini takomillashganligi	708
Xolmurodova Laziza Erkinovna, Xudoyqulova Intizor G'ayrat qizi	
Umumta'lim maktablarida inson resurslarini rivojlantirishga doir zamonaviy boshqaruvning asosiy tamoyillari	711
Xusanov Xasanjon Xusanxo'ja o'g'li	
Boshlang'ich sinf o'qituvchilarining tanqidiy fikrlashini rivojlantirish	716
Yusufaliyeva Gulnora Abdurahmonovna	
Dirijyor-xormeysterlik bo'yicha kasbiy-kompetentlikni shakllantirishning nazariy asoslari	721
Z. A. Nuraliyeva	
Boshlang'ich maktab o'quvchilarini o'qitishda kompetensiyaga asoslangan yondashuv	724
Zaripova Muslima Qurbonovna	
Xorijiy tajribalar asosida o'quvchilarda kritik fikrlashni rivojlantirishda integrativ yondashuvning ahamiyati	727
Zokirova Ma'suma Qahramonjon qizi	
Norasmiy va informal ta'limni tan olishning konseptual asoslari va rivojlantirish yo'llari	730
Anvar Allabergenov	
Методы совершенствования слуховых навыков через цифровой сторителлинг в начальных школах	735
Раимова Малохатхон	
Biologiya darslari ekologik ta'lim va tarbiyani rivojlantirish omili sifatida	740
Quldosheva Dilso'z Sunnatovna	
Xalqaro futbol musobaqalari statistikasi asosida o'yin strategiyalarini tahlil qilish	743
Davranov E. O.	
Особенности проведения занятий по биологии с применением современных педагогических технологий	748
Койилова Мехринисо	



Boshqaruv kadrlar zaxirasini samarali shakllantirishda gender tenglikni ta'minlashning ijtimoiy-psixologik omillari	755
Abdullajanova Dilnozaxon Sultanbekovna	
Ijtimoiy tarmoqlar va raqamli kommunikatsiyaning zamonaviy o'zbek va ingliz tillariga ta'siri.....	761
Abdullayev Shaxobiddin Abduali o'g'li	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida stem yondashuvi asosida muhandislik ko'nikmalarini rivojlantirishning dolzarbligi.....	765
Abdullayeva Moxinur O'lmasboy qizi	
Proporsiyalar siri.....	769
Arabboyeva Zamiraxon Tadjibayevna	
Zamonaviy ta'limda kreativ yondashuvlar: zamonaviy metodlar va amaliy misollar asosidagi tahlil	773
Askarova Zilolaxon Nurmuxamadovna	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida kitobxonlik savodxonligini rivojlantirish kompetentsiyasi	777
Eshmurodova Dilobar Nizom qizi	
Havoning nisbiy namligini aniqlash.....	781
Hasanboyeva Diyoraxon, Tojaliyeva Dilyora	
Yevropa mamlakatlarida ta'lim-tarbiya masalalarining olib borilishi tahlili (Italiya va Fransiya maktablari misolida)	784
F. F. Xalilov, Ibodullayeva Dildora Shukrulla qizi	
Individual va differensial yondashuvlarning boshlang'ich ta'lim metodikasi bilan integratsiyasi.....	787
Jinayeva Dilrabo Abdusalomovna	
Blokcheyn texnologiyalari va undan foydalanish yo'llari.....	791
Jomonqulova Fazilat Esirgapovna	
Neyropedagogik yondashuv asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'quv-bilish faoliyatini shakllantirish.....	794
Jumayeva Mahbuba O'ktam qizi	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish texnologiyasi	798
Mirsaidova Maxbuba	
Korpus lingvistikasida lingvostatistik tahlil metodi	801
Nuritdinov Abrorbek Sayfiddin o'g'li	
Tarbiyalanuvchilarni sensomotorikasining psixologik strukturasini.....	804
Parmonova Laylo Iloxomovna	
Maxsus maktabgacha tarbiya muassasalarida bolalar nutqining ohang, ritm va sur'atini tarbiyalash metodikasi.....	808
Saydaliyeva Xojiya Abduljalil qizi	
Pedagogik faoliyatda shaxslararo munosabatlarning ijtimoiy-psixologik jihatlari	812
Shakarboeva Shaxnoza Abdulakimovna	
Talabalarda hunarmandchilik ko'nikmalari va ijodiy salohiyatini rivojlantirishning psixologik-pedagogik asoslari.....	816
Sharipova Go'zal Sodiqovna	
Faxriyorning doston yaratishdagi mahorati va ularning badiiylilik xususiyatlari	820
Tangirova Dilbar	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari metodik tayyorgarligini takomillashtirishda elektron ta'lim resurslaridan foydalanish.....	824
Turanova Iroda Egamberdi qizi	
Talabalarni maktabgacha ta'lim tashkiloti va ota-onalar hamkorligini tashkil etishga o'rgatishning metodik asoslari	827
Turdiqulova Luiza Zayniddinovna	
O'zbekistonda til ta'limida innovatsiyalar: sun'iy intellekt va raqamli texnologiyalar yondashuvi	831
Umarova Iroda Shavkatjon qizi	
Aqli zaif o'quvchilar bilan psixokorreksion ishlarda qo'llaniladigan metodlar.....	835
Usmanova Nilufar Ilhom qizi	
Boshlang'ich ta'limda o'quvchilarning kreativ o'qish madaniyatini shakllantirishda sun'iy intellektidan foydalanish	840
Xayitova Firuza Abdullayevna	
Oliy o'quv yurtlarida talabalar ijtimoiy kompetentligini rivojlantirishda innovatsion hamkorlik modellari samaradorligi	844
Xaqqulov Komil Yusupovich	



Ta'limda raqamli texnologiyaning o'rni.....	847
<i>Zebuniso Nurtayeva Murodali qizi</i>	
Bo'lajak tarbiyachilarni pedagogik faoliyatga tayyorlashning pedagogik mexanizmlarini takomillashtirish .	852
<i>Abduraxmonova Sayyoraxon Shaxobidinovna</i>	
Направленное обучение борцов самостоятельному управлению нагрузкой в тренировке по частоте сокращений сердца	856
<i>Алишер Базарбаевич Ашуралиев</i>	
Педагогические возможности развития креативного мышления студентов педагогических вузов	859
<i>Каримова Барно Эргашевна</i>	
Инклюзивное образование: интеграция теоретических основ и практических методов для формирования эффективной образовательной среды	862
<i>Л. З. Намазбаева</i>	
Влияние славянской мифологии на русскую литературу	866
<i>Хайдаров Рамазон Комилжон угли</i>	
Совершенствование методики преподавания русского языка в нефилологических аспектах	871
<i>Ходжибекова М. А.</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanishida qurish-yasash faoliyatlarini tashkil etishning ahamiyati.	875
<i>Sultonova Nurxon Anvarovna</i>	
Xorijiy mamlakatlarda maktabgacha ta'limning o'ziga xos xususiyatlari va tarbiyachi faoliyatining mazmuni.....	878
<i>Nazirova Guzal Malikovna</i>	
Творческий подход к формированию личности будущего воспитателя	881
<i>Халкузиева Дилноза Баходировна</i>	
Maktabgacha ta'lim muassasasida huquqiy tarbiyani amalga oshirish yo'llari.....	884
<i>Karimova Umida Sharopovna</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarda akmeologik yondashuvni rivojlantirishning nazariy asoslari.....	887
<i>Mirzayev Shavkat Turdibayevich</i>	
Psixolog talabalarda liderlik kompetentligini rivojlantirishning psixologik xususiyatlari	890
<i>Qurbanova Surayyo Tuynazar qizi</i>	
Роль самостоятельного обучения в формировании творчества учащихся	894
<i>Курбанова Бузайнаб Нурмухаммадиевна</i>	
Ingliz tili darslarida yuqori sinf o'quvchilarini madaniyatshunoslik yondashuvi asosida umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash metodikasi	899
<i>Saxoddinova Muhayyo Eshmamat qizi</i>	
Harbiy ta'lim mashg'ulotlarida modulli texnologiyalardan foydalanish.....	904
<i>Usmonov Adxam Abduxamidovich</i>	



XORIJIY MAMLAKATLARDA MAKTABGACHA TA'LIMNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI VA TARBIYACHI FAOLIYATINING MAZMUNI

Nazirova Guzal Malikovna
Qo'qon davlat universiteti professori

Annotatsiya: Ushbu maqolada xorijiy mamlakatlarda maktabgacha ta'limning o'ziga xos xususiyatlari va tarbiyachi faoliyatining mazmuni o'rganilgan. Shuningdek, oliy ta'lim muassasalarida kasbiy tayyorgarlik jarayonlarini samarali tashkil etish, tarbiyachilarni tayyorlashda jahon tajribasidan foydalanish muhim omil sifatida ko'rsatib berilgan.

Kalit so'zlar: maktabgacha ta'lim, xorij tajribasi, milliy tizim, xususiyatlar, tarbiyachi, tayyorlash, ta'lim, tarbiya, vazifalar, kasbiy malaka.

Abstract: This article explores the specific features of preschool education in foreign countries and the core content of educators' professional activities. It highlights that organizing effective professional training processes in higher education institutions requires learning from and applying international best practices.

Key words: preschool education, foreign experience, national system, characteristics, educator, training, education, upbringing, functions, professional qualification.

Аннотация: В статье исследуются особенности дошкольного образования в зарубежных странах и содержание деятельности воспитателя. Показано, что эффективная организация профессиональной подготовки в высших учебных заведениях требует изучения и внедрения передового международного опыта.

Ключевые слова: дошкольное образование, зарубежный опыт, национальная система, особенности, воспитатель, подготовка, образование, воспитание, функции, профессиональная квалификация.

KIRISH

Dunyoning ko'pgina davlatlarida maktabgacha ta'lim yagona ta'lim-tarbiya tizimining dastlabki bo'g'ini hisoblanadi. Mazkur tizimga mahalliy hokimiyat organlari, sanoat va qishloq xo'jaligi korxonalari, diniy va jamoat tashkilotlari hamda jismoniy shaxslar tomonidan e'tibor qaratiladi. Odatda, ko'pgina davlatlarda statsionar va mavsumiy yasli, ish vaqti davomiyligi turlicha bo'lgan maktabgacha ta'lim muassasalari, boshlang'ich sinflarda maktabgacha bo'limlar, onalar maktablari hamda o'yin maydonchalari faoliyat yuritadi.

Tarbiyaviy ishlarning asosiy maqsadi bolalarning har tomonlama barkamol rivojlanishi hamda ularda ijtimoiy hayot malakalarini shakllantirishdan iborat bo'lib, bu jarayonlar ta'lim va tarbiya dasturlari asosida amalga oshiriladi.

Barcha davlatlarda pedagogik tarbiyachilarni tayyorlash tizimi mavjud bo'lib, bu tizim maxsus kurslar, o'rta maxsus va oliy ta'lim muassasalari orqali yo'lga qo'yilgan.

Hozirgi davrda bu muassasalar zamonaviy maktabgacha ta'lim tashkilotlari sifatida bolalar tarbiyasiga differensial yondashuvni ta'minlamoqda. Maktabgacha ta'lim tizimining shakllanishi va rivojlanishiga M. Montessori, G. Shteyner, J. Piaje va D. Bruner kabi yetuk pedagog-olimlarning g'oyalari katta ta'sir ko'rsatgan.

Har bir milliy maktabgacha ta'lim tizimi o'ziga xos tajribalarga ega. Shu jihatdan, xorijiy davlatlarda tashkil etilgan maktabgacha ta'lim tizimi tajribalari ushbu tadqiqot doirasida o'rganildi va tahlil qilindi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Bolgariyada davlat maktabgacha ta'lim tizimi Ikkinchi Jahon urushidan so'ng shakllangan bo'lib, bugungi kunda ushbu tizim tarkibiga yarim kunlik, yillik, mavsumiy va sutkalik faoliyat yurituvchi maktabgacha ta'lim muassasalari, yasli, kunduzgi hamda yarim kunlik yasli-bog'chalar (maktablar qoshidagi MTMLar) kiradi.



Maktabgacha yoshdagi bolalarni tarbiyalash uchun davlat dasturi ishlab chiqilgan va uning asosida deyarli barcha bolalar maktabgacha ta'lim muassasalariga qamrab olingan. Ushbu muassasalarda jismoniy tarbiyaga alohida e'tibor qaratilib, sport bayramlari, suzish mashg'ulotlari, chiniqtirish tadbirlari muntazam tashkil etiladi. Bolgariya maktabgacha ta'lim tizimining asosiy xususiyatlarini quyidagicha izohlash mumkin:

- maktabgacha muassasalarining keng tarmog'i mavjud bo'lib, ularda loyiha va qurilish ishlari maxsus me'yorlar asosida tashkil etiladi;
 - davlat tomonidan maktabgacha ta'lim va pedagogik kadrlarni tayyorlash tizimi yo'lga qo'yilgan;
 - maktabgacha ta'lim xalq ta'limi tizimining uzviy qismi, ya'ni uning dastlabki bo'g'ini sifatida tan olingan;
 - barcha maktabgacha muassasalarda bolalarni tarbiyalash bo'yicha davlat dasturi amalda joriy qilingan.
- Mazkur tizim Bolgariyada ta'lim-tarbiya islohoti doirasida bolalar salomatligi, ijtimoiy moslashuvi va intellektual rivojiga ko'maklashuvchi muhim ijtimoiy institut sifatida qaraladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda xorijiy mamlakatlardagi maktabgacha ta'lim tizimlari va tarbiyachi faoliyatining xususiyatlarini o'rganish uchun taqqoslama tahlil usuli qo'llanildi. Ma'lumotlar asosan rasmiy davlat hujjatlari, xalqaro tashkilotlar hisobotlari va ilmiy maqolalar asosida jamlandi hamda kontent tahlili orqali ularning mazmuniy jihatlari tizimli ravishda solishtirib tahlil qilindi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Zamonaviy bosqichda butun xalq ta'limi tizimi, shu jumladan davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarining islohotlari davom etmoqda. Buyuk Britaniyada uzoq vaqt davomida kam ta'minlangan oilalar farzandlari uchun davlat nazoratidagi muassasalar faoliyat yuritgan. Biroq mamlakatda barcha bolalarni 5 yoshdan boshlab qabul qiladigan maktab ta'limiga tayyorlash uchun maktabgacha muassasalar yetarli emas.

Mavjud muassasalar asosiy jihatdan quyidagilarga bo'linadi: davlat va xususiy yasli, yasli maktablar, yasli sinflar, o'yin klublari, ona va bola klublari hamda "imkoniyatlar" guruhlar. Ularning faoliyat mazmuniga ko'ra uch guruhga ajratish mumkin: bolalar parvarishini ta'minlaydigan kunduzgi yasli; bolalarni aqliy rivojlantirish va maktabga tayyorlashga xizmat qiladigan yasli sinflar va maktablar; shuningdek, o'yin guruhlar, ona va bola klublari, imkoniyatlar guruhlar.

Mintaqaviy kunduzgi yasli odatda mahalliy hokimiyat organlari bir necha oylikdan 4–5 yoshgacha bo'lgan bolalar uchun tashkil etadi. Bu muassasalar yil davomida soat 08:00 dan 18:00 gacha faoliyat yuritadi va kam daromadli oilalar farzandlari uchun mo'ljallangan bo'ladi.

Xususiy kunduzgi yasli esa turli jismoniy shaxslar, tashkilotlar, xayriya jamiyatlari, diniy tashkilotlar va shunga o'xshash subyektlar tomonidan tashkil etiladi. Bular tarkibiga cherkov-jamoatchilik yasli, yirik kompaniya va korporatsiyalarning ishchilari uchun mo'ljallangan yasli, tijorat yasli, kooperativ yasli hamda ilmiy-tadqiqot markazlari qoshidagi psixologik-pedagogik yo'nalishdagi muassasalar kiradi. Ularning maqsadi kichik yoshdagi farzandi bor onalarga kun davomida bir necha soat bo'sh vaqt yaratib berishdan iborat.

Mamlakatda ko'plab xususiy tarbiyachilar faoliyat yuritadi. Ular ota-onalarning ixtiyoriga ko'ra, bolalar tug'ilganidan 5 yoshgacha bo'lgan davrda, ish kuni davomida tarbiya bilan shug'ullanadi.

Ayniqsa, 3–5 yoshdagi bolalar uchun bepul mintaqaviy yasli maktablari va sinflari keng ommalashgan. Yasli markazlari o'ziga xos tarzda birlashgan kunduzgi va yasli maktablar shaklida faoliyat yuritadi. Ular ko'plab afzalliklarga ega bo'lsa-da, son jihatdan cheklangan. Ko'p hollarda boshlang'ich maktablar qoshida tashkil etiladigan bu markazlar bolalarning aqliy, jismoniy, ma'naviy, estetik rivojlanishi va individualliklarini shakllantirishga xizmat qiladi. Ushbu yasli markazlar ko'pincha ota-onalar tashabbusi bilan ochiladi va bolalarni har tomonlama barkamol rivojlantirishning yuqori darajasini ta'minlaydi.

O'yinli guruhlar esa maktabgacha muassasalar ichida eng keng tarqalgan shakl hisoblanadi. Ular Maktabgacha o'yinlar guruhi assotsiatsiyasi tarkibida faoliyat yuritadi. Ushbu guruhlar qisman davlat byudjetidan, xayriya mablag'lari hamda ko'proq ota-onalar tomonidan moliyalashtiriladi. Ularda 2–3 yosh oralig'idagi bolalarning 70 foizigacha tarbiyalanadi. Guruhlar tarkibi odatda 6 nafardan 40 nafargacha bo'ladi. Bu muassasalar haftasiga 2–5 kun davomida, har kuni 2–3 soat ishlaydi. O'yinli guruh rahbarlari maxsus psixologik-pedagogik tayyorgarlikka ega bo'lishi shart, ko'pincha bu guruh rahbarlari tarbiyalanuvchilarning onalari bo'ladi.

Shifoxona qoshidagi o'yinli guruhlar davolanish jarayonidagi bolalar uchun mo'ljallangan. "Imkoniyatlar" guruhlar esa rivojlanishida alohida ehtiyojga ega bo'lgan bolalarni tarbiyalash maqsadida tashkil etilgan bo'lib, ularning faoliyati o'yinli guruhlar asosida yuritiladi. Biroq bu guruhlarda bolalar soni ancha kam bo'ladi. Mashg'ulotlarda maxsus o'yin va o'quv materiallaridan foydalaniladi.



Ona va bola klublari esa bolalarning guruhdagi tarbiyasi davomida onalarning majburiy ishtirokini nazarda tutadi. Ularning faoliyati o'yinli guruhlar ishidan deyarli farq qilmaydi.

Ingliz xalq ta'limi tizimi boshlang'ich maktablarga 3–4 yoshli bolalarning qabul qilinishiga ruxsat berganligi sababli, ta'lim organlari 5 yoshli bolalar uchun ham tayyorlov sinflari (yoki guruhlari)ni tashkil etadi.

Maktabgacha ta'lim muassasalari va dasturlarining xilma-xilligi Buyuk Britaniyaning maktabgacha tarbiya konsepsiyasiga xos jihatlarni aks ettiradi. Bu yondashuvga ko'ra, bola atrof-muhitni faol idrok qiladigan subyekt sifatida qaraladi. Shu sababli, tarbiyaning asosiy maqsadi bolaning individualligini rivojlantirish va turli faoliyat turlarini egallashda uning mustaqilligini ta'minlashdan iborat. Ta'lim-tarbiya dasturlari bola shaxsini yaxlit tushunishga yo'naltirilgan bo'lib, bilim olishga motivatsion omillarni kuchaytirish va tashabbuskorlikni rivojlantirishni ko'zda tutadi. Maktabgacha ta'lim muassasalarida bir kattaga 3 nafardan ortiq go'dak, 3–5 yosh oralig'ida esa 5 nafardan ortiq bola to'g'ri kelmasligi qat'iy belgilangan.

Bolaning maktabgacha ta'lim muassasasiga moslashuvini osonlashtirish maqsadida dastlabki kunlarda u o'z onasi bilan birga bo'lishi tavsiya etiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Maktabgacha yoshdagi bolalarning ta'lim va tarbiyasiga oid milliy tizimlar qanchalik o'ziga xos va original bo'lmasin, ularning barchasi zahirida universal tamoyillar mujassam bo'lib, maktabgacha ta'lim va tarbiya yagona hamda yaxlit tizim sifatida taraqqiyotning umumiy hodisasi sifatida namoyon bo'ladi.

Shu asosda quyidagi takliflarni ilgari surish mumkin:

- O'zbekiston milliy maktabgacha ta'lim tizimini takomillashtirishda ilg'or xorijiy tajribalarni, xususan Buyuk Britaniya va Bolgariya kabi davlatlar modelini chuqur o'rganish va moslashtirish zarur;
- Maktabgacha ta'lim muassasalarining turli shakllarini rivojlantirish, ayniqsa, imkoniyati cheklangan va kam ta'minlangan oilalar uchun inklyuziv ta'lim asosida xizmat ko'rsatishni kuchaytirish lozim;
- Tarbiyachilarni tayyorlash jarayonida zamonaviy psixologik-pedagogik yondashuvlarni tatbiq etish, bu borada xalqaro metodikalarga asoslangan ilg'or amaliyotlarni joriy qilish maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-maydagi "O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PQ-4312-son qarori: <https://lex.uz/ru/docs/-4327235>.
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 13-maydagi 391-son "Maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori: <https://lex.uz/docs/-4333062>.
3. "Ilk qadam". Maktabgacha ta'lim tashkilotlari davlat o'quv dasturi. Tuzuvchilar: I.V. Grasheva, L.G. Yevstafyeva, D.T. Mahmudova, Sh.B. Nabixonova, S.V. Pak, G.E. Janpeisova. – T.: MTV, 2018. – 69 bet.
4. Janpeisova G.A. Deyatelnostniy podxod pedagoga k organizatsii igrovoy deyatelnosti – zalog sotsialnoy uspehnosti pedagoga // Garmonichno razvitoye pokoleniye – usloviye stabilnogo razvitiya Respubliki Uzbekistan. – Sb. nauch.-met. statey pod obshchey red. prof. R.X. Djurayeva. UzNIIPN, Toshkent, 2014. – B.107–110.
5. Djurayeva B.R., Tojiboyeva H.M., Nazirova G.M. Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarga ta'lim-tarbiya berishning zamonaviy tendensiyalari. – Toshkent: O'zPFITi, 2015. – 112 bet.
6. Kirsten A., Hansen Roksana K., Kaufmann Keyt Berk Uolsh. Bolaga mo'ljallangan dasturni tashkil etish // So'z boshi Pamela A. Koglinniki. – Toshkent, 2005. – 246 b.
7. Sharipov F.V. Pedagogika i psixologiya visshey shkoli: uchebnoye posobiye / F.V. Sharipov. – M.: Logos, 2012. – 448 s.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. №5

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.